



XITOIY TILIDA ONOMATOPEYANING
SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Tashmuxamedova Dildora Aziz qizi

Oriental universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada xitoy tilida taqlid so'zlarning gap tuzilishi tutgan o'rni ko'rsatib beriladi. Xitoy zabardast tilshunoslarining taqlidlar borasidagi fikrlari keltirilib, ularning gapdagi vazifasi misollar yordamida ochib beriladi. "Hozirgi zamon xitoy tili grammatikasi" asaridagi qarashlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: taqlidlar, onomatopeya, gap bo'laklari, ega, kesim, aniqlovchi, hol.

Xitoy tilida taqlidlarning sintaktik o'rni va vazifasi borasida ham tilshunoslar o'zlarining nazariyalaridan kelib chiqqan holda turli fikrlarni bildirganlar. Quyida to'plangan amaliy materiallar asosida taqlidlarning sintaksisda tutgan o'rnini tahlil qilamiz.

"Hozirgi zamon xitoy tili grammatikasi" asarida taqlidlarning turli xil sintaktik vazifa bajara olishi misollar yordamida ko'rsatib berilgan³¹.

1. Taqlid so'zlar gapda, asosan, hol va sifatlovchi fe'l kesim bo'lib keladi. Bunda taqlidni kesimga bog'lash uchun 地 bog'lovchisidan foydalanamiz. Ba'zan 地 qo'shilmaslik holatlari ham kuzatiladi.

1) 桌上的闹钟的嗒的嗒地在静夜里清脆地响着。

Stol ustidagi budilnik sokin tunda diring-diring etib tiniq jiringlaydi.

2) 抢叭了一声这抢是朝天放的, 为了吓跑围过来的狗熊。

Quroldan paq etgan ovoz eshitildi, o'qatrofda izg'ib yurgan ayiqlarni qo'rqitish maqsadida osmonga otildi.

2. Aniqlovchi bo'lib kelishi mumkin, bunda 的 bog'lovchisi qo'shiladi.

1) 我躺着,从船底潺潺的水声,知道船还在走着。

Men yotgan vaqtimda qayiq tubidan bilq-bilq suvning ovozi eshitilgach, hali ham harakatlanotganimizni angladim.

3. Kesim bo'lib kelishi mumkin.

1) 她们轻轻划着船,船两边的水,哗,哗,哗。

Ular qayiqni yengil eshishdi, ikki tomondan suv bilq-bilq etdi.

4. To'ldiruvchi bo'lib kelganda 的 bog'lovchisi bilan keladi.

1) 火车从这里经过的时候,窗户都被震得哗啦哗啦的。

³¹ 刘月华等著. 使用现代汉语语法.增订本. – 北京: 商务印书馆, 2001. – 455页.



Poyezd bu yerdan o'tganida derazalar qimirlaganidan zirillab ketdi.

5. Ega vazifasida kelishi mumkin (juda kam uchraydigan holat).

自然喽,我的叽哩呱啦是出了名的,厂里谁不知道?

Tabiiyki, mening baqir-chaqirim mashhur, zavodda kim buni bilmas ekan?

Biror narsaning tovushini izohlaganimizda ega vazifasida kelishi mumkin, bunda taqlid so'z egalikni ifodalovchi so'zni olib otlashadi.

6. Murakkab komponent sifatida kelib, taqlid so'z tinish belgisi orqali gapdan ajralib turadi.

1) “*笃!笃!笃!*”声音那么沉闷,就同我的心情一样。

“G'oq-g'oq-g'oq!” O'rdaklarning ovozi xuddi mening kayfiyatim kabi xira edi.

Tilshunoslar xitoy tilining tabiatidan kelib chiqqan holda sintaktik tahlil qilishgan. Biroq, taqlidlarning murakkab komponent va alohida gap sifatida kelishi, nazarimizda, bir xildek. Umumiy jihatdan qo'shtirnoq yoki tinish belgilari orqali gapdan ajralib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 现代汉语辞海 (套装共3册) (最新修订版) — 北京: 中国书籍出版社, 2011. – 1450页.
2. 吕叔湘. 语法修辞讲话. – 北京: 中国青年出版社, 1979. – 250页.
3. 现代汉语词典: 商务印书馆创立115周年纪念版/中国社会科学院语言研究所词典编辑室编. 第6版. – 北京: 商务印书馆, 2012. – 1874页.
4. Tashmuxeamedova, D. (2024). XITOY VA O'ZBEK TILIDAGI TAQLID SO'ZLARINING MORFOLOGIK TIPOLOGIYASI. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 3(9), 148-156.
5. Tashmuxeamedova, D. A. Q. (2023). XITOY TILIDA TAQLID SO'ZLARINING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(12), 324-330.
6. Tashmuxeamedova, D. A. Q. (2022). DUNYO TILSHUNOSLIGIDA TAQLID SO'ZLAR BORASIDAGI LEKSIK-SEMANTIK QARASHLAR TAHLILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 21), 65-70.